

Ramzanova Ziyada Orazbaevna

Nukus tumani kasb -hunar maktabi

maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola maxsus fanlarni o'qitish metodikasini yoritadi. Maqolada maxsus fanlar bo'yicha ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion usullar va texnologiyalar qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv usullar, dars jarayonini tashkil etish va baholash tizimlari muhokama qilinadi. Maqola pedagoglar va ta'lim sohasida ishlayotgan mutaxassislar uchun foydali tavsiyalar va tajribalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *maxsus fanlar, o'qitish metodikasi, innovatsion usullar, texnologiyalar, interaktiv usullar, dars tashkil etish, baholash tizimlari, pedagoglar, ta'lim mutaxassislari*

O'rtacha o'qituvchi aytib beradi.

Yaxshi o'qituvchi tushuntiradi.

A'lo o'qituvchi o'rgatadi.

Ulug' o'qituvchi sizga zavq baxsh etadi.

Uilyam Uord.

Rivojlangan mamlakatlar safigan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston Respublikasi, xalq xo'jaligining barcha sohalari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali talim mazmunini jahon standartlari talablari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda. Hozirgi kundagi ta'lim oluvchi yoshlar Respublikamizning kelajagidir.

Bu mas'uliyatli vazifani bajarish o'qituvchilarga yuklanadi. Shu sababli yuqori kvalifikatsiyali o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga kata ahamiyat berilishi bejiz emas.

Prezidentimiz o'zining «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli asarida shunday satrlarni keltirib utadi: «Tarbiyachi ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, xulyolik ilm-fanini berish, xaqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirmoq uchun, oldin tarbiyachilarning o'zi ana shunday a talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishi zarur».

Bu maqola o'z navbatida o'qituvchi -murabbiylarning yuqori kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo'lishini taqazo etadi. Shuning uchun ham O'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalar juda qiyin, masuliyatli va iftixorlidir.

Oliy talim o'quv yurtlari va kasb -hunar maktablarida talim jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, zamonaviy o'quv metodik majmualarni

ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, talim tizimida xorijiy mamlakatlarning kasbiy talim tájribalaridan foydalanilmoqda.

O'qitish jarayonining vazifasi talim, tarbiya va rivojlanish birligini táminlashni nazarda tutadi.

Bu xususiyatlar kelajakda bilim oluvchilar qobiliyatini rivojlantirishga, ongli rávishda o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.

Shuning uchun bilim oluvchilarning ilmiy -nazariylik va taqribiy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish jiddiy ahamiyatga ega. Bu urinda shuni unutmaslik zarur, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishlik va ularning taqribiy ko'nikma, malakasini shakllantirish uchun talim jarayoniga oliymaqom malakaga ega bo'lgan pedagoglar, va qobiliyatli va chevar mutaxassislarni jalb etish, ularni ham ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalari bilan tanishtirish zarur. O'shandagina biz ishlab chiqarishga malakali mutaxassisni etkazib bera olgan bolamiz.

Talim jarayonida yangi pedtexnologiyalar va aktiv usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilaetgan texnik vositalarni joriy etish, ko'proq o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, ilg'or tájribalardan, dars utishning turli usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Va shu asnoda bitta narsani aytib o'tishlik zarur, kasb -hunar maktablarida ta'lim olaetgan o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, munosibliqi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bitta yoki bir nechta zamonaviy kasb egallashi uchun kasbiy va maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil etish lozim.

Hozirgi paytda talim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalarning biri o'qitishda zamonaviy pedtexnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni dars jarayoniga tatbiq etish va rivojlangan davlatlarning tájribalarini mamlakatimiz talim tizimiga joriy etish hojati demakdir.

Kasb-hunar o'quv yurtlarida malakali mutaxassis kadrlar tayorlash sifatini ko'pchilik holatlarda kasbiy va maxsus fanlarni samarali o'qitish belgilab beradi.

Maxsus fanlarni o'rganishda ko'proq amaliylik yuqori bo'lganligi, ishlab chiqarish amaliyotlari maxsus fanlar bilan o'zaro aloqador holda olib boriladi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodlarini tanlash va talim maqsadlarini belgilash va o'ziga xoslikni taqazo etadi. Maxsus fanlarning yetakchi komponenti bo'lib «Ishga layoqatlilik usullari» hisoblanadi. O'sha sababli va maxsus fanlardan o'qish adabiyotlarini yaratish va shuning bilan aloqador bo'lgan ta'lim mazmunini belgilashda, o'qish jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali metodlarini tanlashda teran didaktik tahlil yuritish zarur.

Bo'lajak kasbiy-ta'lim o'qituvchisi shuni e'tiborga olish zarur, kichik mutaxassis kadrlar tayorlash tizimida maxsus fanlarni o'rganish áhamiyatli o'rinda turadi. Sababi

ixtisoslikka tegishli bilim, ish-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) va shaxsiy fazilatlar asosan maxsus fanlarni o'rganish jarayonida shakllanadi.

O'qitish metodikasining ob'ekti (urganish sohasi) — kasb -hunar maktablari o'quvchilarida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni tola shakllantirish maqsadida o'quv dasturi asosida maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish, utkazish va baholash jarayonini qamrab oladi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi :

-Ta'lim yo'nalishlari yoki uquv faniniing tarixiy taraqqiyotini tavsiflab beradi;
- talim yo'nalishlari va uquv faniga yarasha dars mashg'ulotlarini atroflicha tahlil etadi va asoslab beradi;

- maxsus fanlardan dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va uni baholashni urgatadi;

-O'qitishning turli modellarini tekshirish, amalda qullash va rivojlantirishni urgatadi;

O'quvchilarda maxsus fanlarning boshqa fanlar bilan uzviyligi bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish zarur.

O'rganish bu — o'g'ir va charchoq hosil qiluvchi mehnatdir. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, agar bilimlar aniq usullar bilan berilsa, unda katta yoshdagi talabanning diqqat bilan urganish vaqti eng kopi bilan 20 daqiqani tashkil qiladi. Taxminan 60 daqiqadan song diqqat va e'tiborlilik eng quyi darajasiga tushadi. Bu holat shunday xulosaga olib keladi, nazariy darslardan soñ tanaffus vaqtida dam olish imkoniyatini berish zarur. Amaliyotdagi oddiy qoida shu, yangi bilimlarni kiritish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasinda amalga oshirilishi, so'ng bo'lsa guruhdagi ish va boshqa tarzdagi aktiv mashg'ulotlarni bajarib ularni mahkamlash zarur.

1. Bundan shunday amaliy qoida kelib chiqadi. Aniq vaqt davomida bilimlar kamida 3 marta takrorlanishi zarur, lekin har bitta takrorlashda boshqacha jihatda o'rganishning hár xil usullari va uy vazifalaridan foydalanish zarur. Demak, o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi zarur.

2. Nazariy dars yoki amaliy mashq oxirida eng áhamiyatga ega yakunlar va qoidalar takrorlanishi va umumlashtirilishi zarur.

3. Ertasiga yangi materialni tushuntirishdi boshlashdan oldin bu umumlashtirishni takrorlash zarur.

4. Hafta oxirida o'quvchilarning eng áhamiyatli bilimlarni ogzaki test yoki uy vazifasi qirg'oqlari esdaliklariga intilish zarur.

Nazariy mashg'ulot yoki taqribiy mashq waktında o'qituvchi tomonidan quyidagi kağıydalarga rioya etishi taklif etiladi.

1. Agar tanlov imkoniyati bo'lsa, nazariy mashg'ulot yoki amaaliy mashq soat 9. 00 dan erta utkazilmasligi va uzagi bilan soat 12. 00 gacha davom etishi zarur.

2. Agar soat 9. 00 dan erta boshlash zarur bo'lsa ogzaki yoki yozma tekshirishni boshlamaslik, uni soat 9. 00 dan song utkazish yoki takrorlash, yoki guruhdagi oddiy ish bilan boshlash zarur.

3. Soat 14. 00 ga yaqin murakkab mashq yoki tekshirishni hech qachon utkazmaslik, o'quvchilarni bu vaqtda (bu vaqt eng quyi faollik saviyasi) aktiv topshiriqlar yoki amaliy ishlar bilan shug'ullantirish zarur. Bu barcha qoidalar dars jarayonini o'zlashtirishda inson qobiliyatini optimal darajada foydalanish maqsadida yoritib o'tildi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar uch xil ravishda, ya'ni reja tajriba, tasavvur va simvol darajasida o'zlashtiradi. O'qish jarayonida o'quv qurollarini ongli ravishda qo'llash katta ahamiyat kasb qiladi.

Maxsus fanlarni o'qitish samarasini oshirish bo'yicha izlanishlar insonlarning tinch, ijtimoiy dam olish darajasidagi muhitda yaxshiroq va yengilirek o'rganishlari mumkinligini ko'rsatadiki. Faqatgina ijobiy emocional va ijtimoiy muhit, balki maqsadga yarasha ravishda jihozlanganlik, aktiv boshqara olish imkoniyatlarining mavjudligi bular safiga kiradi. O'rganish jarayoni mumkin qadar o'quvchilarga qaratish uchun o'qish predmeti o'quvchilar qiziqishlari bilan aloqador bo'lishi zarur. O'quvchini o'rganishga qiziqtirish uchun o'zlashtirish bo'yicha natijalari haqida xabardor etib borilsa va shaxsiy maqsadlar bilan uygunlashtirilsa, ularda qiziqish oshib boradi. O'quvchining o'qish fani bilan aktiv ravishda shug'ullanishi yuzaga kelganda o'qish jarayoni rivojlanadi, sababi o'quvchida boshlang'ich va ikkilamchi motivlar paydo bo'ladi.

O'quvchining o'zlashtirishda erishgan natijalariga mos maqtash va e'tirof so'zlarini aytish uning qiziqishini uyg'otishda ijobiy ta'sirga ega. Bu holat ularda o'z kuchlariga ishonchlarini va o'zlariga qo'yilgan taqozo saviyalarini oshiradi.

Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida turli qiyinchiliklar paydo bulishi mumkin. Masalan, o'quvchining dastlabki bilimlari yetarli emasligi, qiziqishi yo'qligi, muammoni hal etish qiyinligi yoki topshiriqning qiyinligi bo'lishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni o'qish maqsadiga yunaltirilgan yordamchi o'qish usullari bartaraf etish mumkin.

Bularga quyidagilar kiradi :

- O'qish qiyinchiliklarini yengishga yunaltirilgan yordamlar ;
- yechimini topishga yunaltirilgan yordamlar ;
- ishlash va amalga oshirishga yunaltirilgan yordamlar ;
- takrorlash va mashq bajarishga yunaltirilgan yordamlar ;
- o'zlashtirilgan bilimlarni berish va yangi hollarda qullashga yunaltirilgan yordamlar ;

O'qish materialining tuzilmasi qancha yaxshi tuzilgan va u qancha qonuniyliklarni o'z ichiga olgan bo'lsa, bilimlar shuncha yaxshi eshlab qolinadi. O'tkazilgan nazariylik va taqribiy izlanishlarga asoslanib maxsus fanlarni samarali o'rganish bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin.

-O'rganish kichik qadamlar, ya'ni bosqichma-bosqich utkazilishi zarur va har qachon dastlabki bilimlarga asoslanishi zarur.

-Bundan boshqa, o'rganish rag'batlanishi zarur, masalan, e'tirof bilan muvaffaqiyatli o'rganish va uni davom ettirishni rag'batlantirish zarur (maqdash).- O'quvchilar o'zlarining o'rganishdagi yutuqlari haqida xabardor bo'lsa, qiziqish ortadi.

- O'quvchilar «erkin aktiv bo'lmoq» prinsipi asosida o'rganadi. O'rganishdagi aktiv davrlarini tashkil etish zarur.

-O'rganish o'tilayotgan davrda ko'plab qulay holatlarni qo'llash, O'qish holatlarini o'zgartirib turish zarur.

- O'quvchilar ko'p aktiv bo'lib o'rganilsa, o'zlashtirish davomli va muvaffaqiyatli bo'ladi. O'rganishni aktivlashtiruvchi usullaridan foydalanish va guruhli o'rganishni utkazish zarur.

-O'qish jarayonida yordamchi usullarni qullash o'rganish samarasini oshirishi mumkin.

Bilim berishni aktivlashtirish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

- o'qish muammolarni hal etishga qaratilgan aktiv metodlarni qullanish;

- maqsadli va taqribiy uyinlar utkazish

- davra suhbatlari va shaffof diskussiya tashkil etish ;

- namunali dásturiy emas yoki diskussiya rishtasi, tarbiyaviy iloj muhokamasini utkazish;

-ta'lim jarayonida zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalardan foydalana olish.

Hozirgi bilim manbalariga mos metodlar 3 guruhga bo'linadi :

1) O'g'zaki (tushuntirish, aytib berish, suhbatlashish, ma'ruza, o'qish diskussiyasi).

2) Ko'rgazmali (ko'rsatish, illyustratsiya, videostilb ya'ni axborotni ekran orqali etkazib berish, kitob bilan ishlash).

3) Taqribiy usul (yozma, og'zaki mashg'ulotlar, laborator usul, amaliy ya'ni olgan bilimlarni taqribiy topshiriqlarni bajarishda tatbiq, bilim uyinlari).

Hár bitta o'qituvchi o'zida psixologik sifatlarni hosil qilishga va rivojlantirishga harakat etishi zarur.

1. O'qituvchi auditoriyada o'zini xoli tutishi, dars uta olishiga ishonchi zarur.

2. O'qituvchi so'zlab turib fikrlay olishi zarur. O'qituvchilik kasbining o'ziga tánligi, mehnati, chevarligi, boshqa kasblardan farqi ham shunda..

Dars jarayonida fikrlash o'ylash ham gapirish jarayonida qo'shib ketadi. Oldin obdan o'ylab, so'ngi gapirishga imkoniyat bo'lmaydi.

3. O'qituvchining o'ylashi va fikrlashi bitta vaqtning o'zida auditoriyada bo'lib o'tadi. U o'ziga tikilib turgan qora ko'zlardan qurqmasligi zarur. Shu qora kuzlar jurligida o'qituvchi auditoriyadagi o'quvchilar bilan aloqada bo'lishi zarur.

4. Auditoriyadagi o'quvchilarni nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim oluvchilar o'qish materialini o'rganish muhimligini ongli ravishda tushunib etishi, shuning bilsn birga samarador o'zlashtirish uchun ularda tilak -hohish, qiziqish va ishonch bo'lishi zarur.

Aktiv ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va ilmiy tajribalar mundarijasi bo'yicha tizimli va mantiqlik yakuniga yetgan ravishda shakllantirilib, ishlab chiqarish holatlarida qo'llanishga imkoniyat beradi. Bu esa bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, S. (2023). **AMALIY FANLARNI O'QITISH METODIKASI**. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 2), 67-72.
2. Gafirovna, N. Z., & Hamroz G'aniqul o'g, A. (2023). **MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANI AMALIY DARSLARIDA ROLLI O'YINLARNING AHAMIYATI**. The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development, 1(6), 96-99.
3. Minamatov, Y. E. U. (2021). **APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY**. Scientific progress, 2(8), 911-913.
4. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). **APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES**. Scientific progress, 3(4), 738-740.
5. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). **SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI**. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
6. To'xtasinov, A. (2023). **JAMIYAT RIVOJIDA FAN VA TEXNOLOGIYA O'RNI**. Engineering problems and innovations.
7. Norbutayev, M. A. **Teaching of Specialized Subjects in the Energy Field with the Support of ICT**. Journal of Ethics and Diversity in International Communication.